

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDOGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI  
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDOGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MINTAQAVIY MARKAZI**

**“IJTIMOIY MENEJMENTINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI”  
MODULI BO'YICHA  
O'QUV - USLUBIY MAJMUA**

**TOSHKENT - 2022**

.

**Tuzuvchi: J.Xolbekov** - sotsiologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchi: A.N. Aliqoriyeva** – O‘zbekiston Milliy universiteti, Sotsiologiya kafedrasи dotsenti, sots.f.n.

*O‘quv -uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori bilan  
nashrga tavsiya qilingan (2021 yil \_\_ dekabrdagi №\_\_-sonli baennomasi)*

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI .....	12
III. NAZARIY MA'LUMOTLAR.....	16
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	33
V. GLOSSARIY .....	44
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	46

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi «2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri choratadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4358-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldagagi “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5667-sonli Farmonida jamiyat hayotining fundamental sohalaridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, ilg‘or xorijiy hamda mahalliy metodologik tadqiqotlar asosida ilmiy tvsiyalar ishlab chiqish, bunda kompleks sotsiologik tadqiqotlarning sifat jihatdan mutlaqo yangi innovatsion uslub va vositalarini shakllantirish vazifalari belgilangan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli Qarorida oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yilgan talablar, shuningdek xalqaro standartlarni hisobga olgan holda oliy ta’lim yurtlari professoro‘qituvchilarining malakasini oshirish qoidalari belgilangan.

Yuqorida keltirilgan muhim meyoriy hujjatlarda qayd etilgan vazifalar hozirgi kunda sotsiologiya fanining dolzarb vazifalarini zamonaviy boshqaruv ilmining, xususan ijtimoiy menejment, boshqaruv sotsiologiyasi, siyosiy boshqaruv yo‘nalishlarida to‘plangan nazariy va amaliy bilimlar hamda ilg‘or innovatsion tajribalar asosida o‘rganishni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy ijtimoiy menejment nazariyasi, tarixi, shuningdek tarmoqlar yo‘nalishidagi sotsiologik tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi bir qator OTM da sotsiologiya predmetining o‘qitilayotganligi, bir necha oliy o‘quv yurtlarida sotsiologiya bo‘limlarining faoliyat olib borayotganligidan kelib chiqsak, masalaning muhimligi yanada oydinlashadi. Zero, sotsiologiya bo‘yicha ilmiy-akademik va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlanishi mavjud ijtimoiy muammolarni ilmiy asoslangan tavsiyalar asosida o‘rganish, prognozlash, rejalashtirish va loyihalashtirish imkoniyatlarini oshiradi. Shu ma’noda sotsiologik ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, mazkur sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, zamonaviy xorijiy tajribalarni o‘rganish va ta’lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. “Ijtimoiy menejmentning zamonaviy muammolari” moduli aynan mana shu yo‘nalishdagi masalalarini hal etishga qaratilgan.

“Ijtimoiy menejmentning zamonaviy muammolari” kursi oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishida o‘qitiladigan gumanitar fanlar turkumiga kiradi va “Sotsiologiya” fani tarkibida o‘qitiladi. Ayniqsa, ijtimoiy menejment muammolarini

tadqiq etishga sezilarli hissa qo'shgan yirik sotsiolog olimlar, ularning metodologik yondashuvlarini o'rganish muhimdir. Aynan sotsiologiya fanining ular tomonidan tadqiq qilingan muhim muammolari, xususan, zamonaviy jamiyatni ijtimoiy muammolarini oldindan ko'ra bilish (bashorat qilish), prognozlash, rejorashtirish, loyihalashtirish, dasturlash va shular asosida sotsial texnologiyalarni qo'llash va ijtimoiy tashkilotlar faoliyatiga joriy etish tamoyillarini va metodologiyalarini o'qitish zaruriyati oshmoqda. Bu ayniqsa o'zining rivojida aniq ijtimoiy yo'naliishga (vektorga) ega bo'lgan O'zbekiston uchun ahamiyatlidir.

"Ijtimoiy menejmentning zamonaviy muammolari" moduli bo'yicha dasturda sotsiologiya fanining tarmoq yo'naliishlari bo'lgan Boshqaruv sotsiologiyasi va Siyosiy sotsiologiya fanlarining bugungi kunda erishgan eng so'ngi ilmiy ma'lumotlariga alohida o'rinn ajratilgan, shuningdek unda nazariy xulosalar bilan birga empirik materiallarga tayanildi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** pedagog kadrlarni ijtimoiy muammolarini oldindan ko'ra bilish (bashorat qilish), prognozlash, rejorashtirish, loyihalashtirish, dasturlash va shular asosida sotsial texnologiyalarni qo'llash va ijtimoiy tashkilotlar faoliyatiga joriy etish tamoyillarini va metodologiyalarini o'qitishning zamonaviy usullaridan samarali foydalanishga doir amaliy tavsiyalarni berishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- "Sotsiologiya" yo'naliishida pedagog kadrlarning nazariy va kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;
- pedagoglarning tizimli fikrlash va ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- sotsiologiyani o'qitishning muammoli va innovatsion texnologiyalari tajribalarini o'zlashtirishga yordamlashish;

- ijtimoiy menejment, xususan ijtimoiy jarayonlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotining tadrijiy rivojiga, shuningdek sotsial boshqaruv predmeti va strukturasiga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish;
- ijtimoiy menejmentning muhim muammosi bo‘lgan boshqaruv sikli haqida tizimli tasavvurlarni shakllantirish;
- boshqaruvning inson omiliga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish;
- “Sotsiologiya” yo‘nalishida o‘z ustida ishlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini amaliyat va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilar ning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

Modulni o‘zlashtirish yakunida tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishlari lozim:

#### **Tinglovchi:**

- jamiyatning sotsial tizim (sotsium) sifatidagi shakllanishi, funksional mavjudligi va o‘zgarishi meyorlarini;
- jamiyatning sotsial strukturasi va sotsial tizimlarini;
- ijtimoiy meyorlarning o‘zgarish tendensiyalarini;
- sotsial makonda urbanizatsiya va axborotlashgan jamiyat modellari;
- zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar metodikasi va texnikasini;
- ijtimoiy muammolarni oldindan ko‘ra bilish (bashorat qilish), prognozlash, rejalashtirish, loyihalashtirish, dasturlash va shular asosida sotsial texnologiyalarni qo‘llash va ijtimoiy tashkilotlar faoliyatiga joriy etish tamoyillarini va metodologiyalarini;

- “sotsiologik tadqiqot” tushunchasi, sotsiologik bilish tizimida uning funksiyalarini;
- taraqqiyot tizimida ijtimoiy xizmat: nazariy-metodologik asoslarini;
- ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishning konseptual jihatlarini;
- ijtimoiy xizmat konseptining ijtimoiy tavsifini ***bilishi*** kerak.

**Tinglovchi:**

- AQSH, Yevropa, Kanada, Rossiya, Xitoy, Yaponiya va Markaziy Osiyo sotsiologiya fani rivojidagi ustuvor masalalar va zamonaviy nazariy metodologik konsepsiyanini tahlil etish;
- ijtimoiy menejmentning muhim muammosi bo‘lgan boshqaruv sikli haqida tizimli tasavvurlarni shakllantirish;
- boshqaruvning inson omiliga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish;
- sotsiologik tadqiqot jarayoni bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyotga qo‘llashga doir, shuningdek tadqiqot metodologiyasi va metodini aniqlash, ularning o‘xshashligi va farqli jihatlarini ajrata olish;
- ijtimoiy munosabatlarning sotsial jihatlarini tadbiq etish;
- internet kibermakonida muvozanatsizlikni muvozanatlash;
- internet kibermakonida axborot olish madaniyati, uning asosiy vosita va turlarini sotsiologik tahlil qilish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- tashkilot, muassasa va idoralarda sotsiologik tadqiq qilingan statistik ma’lumotlardan ilmiy-pedagogik faoliyatda foydalanish;
- sotsiologiya fanida ijtimoiy meyor, xulq-atvor meyorlari va deviantlik holatlarining namoyon bo‘lishiga doir, migratsiya jarayonlarining kechishi, holati va istiqboliga doir prognostik tasavvur qila olish;

- ma'lumotlar yig'ish metodlarini umumiylashtirishni tasnifi va turlari to'g'risida, shuningdek hujjatlar, birlamchi ma'lumotlar tahlilini amalga oshira olish;
- inson manfaatlarni ta'minlashda ijtimoiy xizmat ko'rsatishning ahamiyati, ijtimoiy xizmatning madaniy jihatlari va o'ziga xosliklari, ijtimoiy xizmat ko'rsatishning institusionallashuvi, ijtimoiy xizmat paradigmalari va ulardan samarali foydalanish;
- boshqaruv faoliyatida inson omili ahamiyatini bilishi va inson manfaatlari hamda erkinliklarini joriy etish;
- ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishslash va tahlil qilishning yangi usullarini optimallashtirish ***malakalariga*** ega bo'lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- zamonaviy sotsiologiyaning maxsus va tarmoq yo'nalishlari asosiy kategoriyalari, nazariy va amaliy sohalarda erishgan yutuqlari, muammolari va ularning rivojlanish istiqbollarini belgilash va tahlil qilish;
- sotsiologik tadqiqot natijalaridan davlat va jamiyat manfaati rivojida foydalanish, sotsiologning axloq Kodeksidan kelib chiqib ma'lumotlarni ijobiy maqsadlarga yo'naltirib loyihalash;
- zamonaviy sotsiologiya fanining nazariy va amaliy yutuqlarini ilmiy ijodkorlikka yo'naltirib loyihalash;
- ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish va bashorat qilish;
- ijtimoiy sohada qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlarni ijtimoiy hayotga tadbiq etish;
- axborotlashgan jamiyat to'g'risida ilgari surilgan konseptual g'oyalar va ularning istiqboli to'g'risidagi qarashlarni tahlil eta olish;
- sotsiologiya fanidagi dolzarb muammolarni aniqlash va yechimini topish;

- nazariy-metodologik bilimlarni qo'llagan holda davlat buyurtmasiga oid muammoviy masalalarini yechishga oid tadqiqotlarni bajarish *kompetentsiyalariga* ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

"Ijtimoiy menejmentning zamonaviy muammolari" moduli o'quv rejadagi "Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish" va mutaxassislik fanlari blokidagi barcha o'quv modullari bilan uzviy bog'langan.

### **Modulning oliv ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar sotsiologiya fanining nazariy va metodologik asoslarini, shuningdek, ijtimoiy boshqaruvga oid zamonaviy nazariy g'oyalar va amaliy natijalarga asoslangan xulosalar chiqarish, sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlaridan amaliy foydalanish metodlarini qo'llash bo'yicha kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

**“Ijtimoiy menejmentning zamonaviy muammolari” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Хаммаси	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
			Жами	jumladan	
1.	Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti: tadrijiy rivoji va hozirgi holati	4	4	2	2
2.	Ijtimoiy menejmentning bazaviy tushunchalari: boshqaruv sikli; sotsial texnologiyalar; tashkilotlar	4	4	2	2
3.	Ijtimoiy menejmentda inson omili	4	4	2	2
4.	Tashkilotda ijtimoiy-ruhiy resurslar va ularni amalga oshirishda empirik tadqiqotlarning o‘rni	4	4		2
	<b>Jami: 14 soat</b>	<b>14</b>	<b>14</b>	<b>6</b>	<b>8</b>

**NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu:** Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti: tadrijiy rivoji va hozirgi holati ( 2-soat).

1. Ijtimoiy menejmentda boshqaruv nazariyalari va konsepsiyalarining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari
2. Ijtimoiy menejmentning predmeti va strukturasi
3. Boshqaruv va menejmentning zamonaviy tamoyillari

**2-mavzu:** Ijtimoiy menejmentning bazaviy tushunchalari: boshqaruv sikli; sotsial texnologiyalar; tashkilotlar

1. Ijtimoiy oldindan ko‘ra bilish (bashorat) va prognozlash
2. Ijtimoiy menejmentning muhim triadasi: ijtimoiy rejalashtirish, ijtimoiy loyihalashtirish, ijtimoiy dasturlash
3. Sotsial texnologiyalar – ijtimoiy menejmentning muhim instrumenti sifatida

4. Tashkilotlar – ijtimoiy boshqaruvning muhim omili **3-mavzu:** Ijtimoiy menejmentda inson omili (**2-soat**).

1. Boshqaruvning inson omili: g‘oya va amaliyot
2. Ijtimoiy menejmetda boshqaruv uslubi tushunchasi
3. Boshqaruv jarayon sifatida: ishtirokmi yoki birgalikdagi ishtirok?
4. Ijodiy jamoani boshqarish va ijodiy salohiyatni boshqarish

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

### **1. “Keys-stadi” uslubi** (Case study method).

«Case study» - inglizcha so‘zlar birikmasi bo‘lib («case» – aniq vaziyat yoki hodisa, «study» – o‘rganmoq), uning ma’nosi aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishga qaratilgan uslubni (metodni) anglatadi. Mazkur uslub dastlab 1921 yilda Garvard universitetida iqtisodiy boshqaruv fanini o‘qitishda qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborot yoki aniq voqeahodisalardan vaziyat sifatida tahlil maqsadida foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagi punktlarni qamrab oladi: Kim? (Who?), Qachon? (When?), Qayerda? (Where?), Nima uchun? (Why?), Qanday?/ Qanaqa? (How?), Nima? (What?).

#### **“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minati bilan tanishtirish	<input type="checkbox"/> yakka tartibdagи audio-vizual ish; <input type="checkbox"/> keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); <input type="checkbox"/> axborotni umumlashtirish; <input type="checkbox"/> axborot tahlili; <input type="checkbox"/> muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<input type="checkbox"/> individual va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; <input type="checkbox"/> asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<input type="checkbox"/> individual va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; <input type="checkbox"/> har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; <input type="checkbox"/> muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<input type="checkbox"/> yakka va guruhda ishlash; <input type="checkbox"/> muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; <input type="checkbox"/> ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; <input type="checkbox"/> yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

*Keys: Muammo sifatida turli xil jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar na’munalari olinadi. Bunda turli jadvallar orqali qiyosiy materiallar tayyorlanadi. Ijtimoiy tizim va jarayonlarning davriy o‘zgarishi tendensiyalari aniqlanadi, buning sabablarining umumiy jihatlari o‘rganiladi.*

### **Keysni bajarish bosqchilarini va topshiriqlari:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Dasturni to‘g‘ri ishlashi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

### **2. “Assessment” usuli.**

Usulning maqsadi: mazkur usul ta’lim oluvchilarining bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarining bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Usulni amalga oshirish tartibi: “Assessment”lardan ma’ruza mashhg‘ulotlarida tinglovchilarining mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda,

shuningdek, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, xususan, o‘zini-o‘zi baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assessment ga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Izoh: Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

### 3. “Tushunchalar tahlili” usuli:

Usulning maqsadi: mazkur usul tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Usulni amalgalashish tartibi: □ ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- tinglovchilarga mavzuga hamda bobga tegishli so‘zlar, iboralar va tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruh tartibida);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Na’muna: “Ma’ruzadagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha Ma’lumot
Boshqaruv	<p><i>Subyektning (boshqaruv subyektining)</i></p> <p><i>obyektga (boshqariladiga narsa yoki inson, guruh, jamoa va b.) uning (ularning)</i></p> <p><i>xususiyatlarini yoki xatti-harakatini</i></p> <p><i>maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirishga qaratilgan ta’sirdir</i></p>	

<i>Menejment</i> (ingl. to manage - boshqarish)	<i>Tashkilotni (firma, kompaniya yoki uning bir qismini) boshqarishdir</i>	
<i>Tashkilot</i>	<i>Umumiy maqsadlarga erishish maqsadida faoliyat yuritadigan va faoliyati ongli ravishda tariblanadigan insonlar guruhি</i>	
<i>Ijtimoiy menedjment</i> <i>(sotsial boshqaruv)</i>	<i>Sotsial jarayonlarga rejalashtirilgan maqsadlarga erishish maqsadida ta'sir ko'rsatish jarayonidir</i>	
<i>Sotsial jarayonlar</i>	<i>Tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar, odamlar orasidagi munosabatlarda yuz beradigan hadasalar va o'zaro harakatlarning majmuasidir</i>	
<i>Ijtimoiy guruhlar</i>	<i>Individlarning kichik assotsiatsiyalardan tortib yirik tashkilotlar va jamiyat darajasigacha bo'lgan ulkan jabhalarda bir-birlari bilan tizimli tarzda o'zaro xattiharakatlar va munosabatlarda bo'luvchi guruhlarini anglatuvchi tushuncha</i>	

1. “Insert” texnikasidan foydalaniлган holda matnni o‘qib chiqing.
- 2.
2. Olingan ma’lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo‘yilgan belgilar asosida «BBB» jadvalini to‘ldiring.

### **“Insert” texnikasi qoidasi:**

1. Matnni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni diqqat bilan o‘rganib, sohalarga ajrating. Qalam bilan har bir qatorga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:
 

V – bilaman;

+ – yangi ma’lumot;

-- bilganlarimga zid;

? – meni o‘ylantiradi

### III. NAZARIY MA’LUMOTLAR

<i>Nº</i>	<i>Mavzu savollari</i>	<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlaman</i>	<i>Bilib oldim</i>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
1.	Boshqaruv va menejment: umumiy va farqli jihatlari			
2.	Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti: tadrijiy yondashuv			
3.	Ijtimoiy jarayonlar: ularni oldindan ko‘ra bilish, prognozlash va rejorashtirish			
4.	Ijtimoiy jarayonlarni loyihalash va dasturlash muammolari			
5.	Ijtimoiy jarayonlarni tashkilotlar vositasida boshqarishda sotsial texnologiyalarning o‘rnini			

### 1-MAVZU: BOSHQARUV NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TADRIJIY RIVOJI VA HOZIRGI HOLATI

**Reja:**

1. Ijtimoiy menejmentda boshqaruv nazariyalari va konsepsiyalarining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari
2. Ijtimoiy menejmentning predmeti va strukturasi 3. Boshqaruv va menejmentning zamонавиъ tamoyillari **Tayanch iboralar:**

*Boshqaruv, menejment, boshqaruv konsepsiyalari, model, subyekt, obyekt, tashkilot, tartiblash.*

Ijtimoiy menejment - bu jamiyat hayotining muayyan sohasini rivojlantirish samaradoragini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan boshqaruv tizimining elementlaridan biridir, chunki ishlab chiqarish jarayonida birlashmada (korxonada) ma'lum iqtisodiy natijalarga erishishga qaratilgan faoliyat bilan birga ijtimoiy muammolar hal qilinadi.

Ijtimoiy muammolar va menejment bilan bog'liq bo'lgan bog'lanishlarning murakkab tizimidan ijtimoiy menejment asosan ishlab chiqarishni boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lganlarni va unda ishlaydigan ijtimoiy guruhlar prizmasi orqali ko'rib chiqadi.

Ijtimoiy boshqaruv obyekti - bu butun sohani emas, balki uning tarkibiy qismlaridan asosan ishlab chiqarishni boshqarishning ijtimoiy mexanizmidir. Albatta, ishlab chiqarish jamoalarida sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni muvaffaqiyatli tartibga solish ularni iqtisodiy jarayonlar bilan muvofiqlashtirishni talab qiladi. Jamiyatning ijtimoiy birligi sifatida ishlab chiqarish jamoasi odamlarning ijtimoiy hayotidagi ko'plab jarayonlarning markazini tashkil etadi, bu jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy unosabatlarinin turlarini aks ettiradi: iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqalar.

Ijtimoiy hodisalar ishlab chiqarish jamoasi faoliyatining barcha sohalariga kirib boradi. Ijtimoiy muammolarni hal etish esa ishlab chiqarish samaradorligini muvaffaqiyatli oshirishda kuchli omil hisoblanadi. Ijtimoiy menejmentning eng muhim vazifasi ishlab chiqarishni boshqarish uchun ijtimoiy mexanizmni shakllantirishning nazariy asoslarini yaratishdir. Ushbu muammoni hal qilishda muhim rol bevosita iqtisodiy tizimlarning ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan jamoaning o'ziga beriladi.

Ishlab chiqarishni boshqarishning ijtimoiy muammolari ishlab chiqarishni boshqarishdan ancha zaif o'r ganilgan, shuning uchun bu muammolarni o'r ganish metodikasi va metodikasi ishlab chiqilmagan. So'nggi yillarda jonlanish yuz berdi,

boshqaruv psixologiyasi va mehnat jamoasi sotsiologiyasida yangi ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Ushbu sohadagi sotsiologik tadqiqotlarning salbiy tomoni - menejmentning o‘rganilayotgan sotsiologik muammolari va mamlakat iqtisodiyoti holati o‘rtasidagi zaif aloqadir.

Boshqarishning ijtimoiy mexanizmini rivojlantirishga mahalliy (A.M. Omarov, V.I. Sivich, E.N. Rudin, A.V. Filippov), shuningdek chet el olimlari katta hissa qo‘shdilar.

Menejment tushunchasi bir qator bilim sohalarida mustahkam o‘rnashgan; u iqtisodiy fanlarda ham, dunyoqarashda ham qo‘llaniladi. Ammo uning mazmuni va ahamiyati asosan o‘rganilayotgan ob’ektning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Texnik qurilmalar, mashinalar va mexanizmlarni boshqarish, tirik organizmlardagi har xil jarayonlarni boshqarish to‘g‘risida, ya’ni. biologik jarayonlarni boshqarish yoki inson xulq-atvori to‘g‘risida.

Ushbu tushuncha jamoadagi ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tavsiflash uchun ishlataladi.

Ijtimoiy boshqaruv toifalari tizimini shakllantirish uchun menejment fanining toifalariga asoslanish maqsadga muvofikdir.

Menejmentning vazifasi tizimni barqarorlashtirish, uni dinamik muvozanat, sifat aniqligi va yaxlitligini ta’minlovchi qonunlarga muvofiqlashtirishdir.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy muammolarini o‘rganishda boshqa fanlar - falsafa, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy psixologiya, statistika, axborot nazariyasi va boshqalarni qo‘llash zarur.

Ijtimoiy boshqaruvning mohiyatini tavsiflash uchun maqsad, ehtiyoj, qiziqish kabi toifalarni bilish zarur.

Maqsad - ishlab chiqarish va boshqarish jarayonida odamlar faoliyatining rejalashtirilgan natijasidir. Shaxs ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi va shu

bilan birga, uning irodasiga bo‘ysunishi kerak bo‘lgan qonun kabi, o‘z harakatlarining usuli va xususiyatini belgilaydigan ongli maqsadini amalga oshiradi. Maqsad ehtiyojning funksiyasi sifatida paydo bo‘ladi.

Iroda - bu shaxs tomonidan o‘z faoliyatini ongli va maqsadga muvofiq tartibga solish, mavjud rejaga muvofiq harakat qilish va maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siqlarni yengib o‘tish qobiliyatidir.

Ehtiyoj u bilan maqsadga erishish imkoniyati o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi, shu bilan iqtisodiy tizimlarning ishlashi, rivojlanishi va ularning o‘zaro ta’sirini belgilaydi. Ongli ehtiyojlar ishlab chiqarish jarayonida faol, maqsadga muvofiq faoliyat manbaiga aylanadi; Shu bilan birga, ehtiyojlar o‘zgaradi, miqdoriy va sifat jihatidan o‘sib boradi. Ushbu lavozimdan menejment - bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida ishlab chiqarish faoliyati jarayoniga kiritilgan uyushgan boshqaruv guruhlari va ob’ektiv mavjud ob’ektlar va hodisalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyatning maxsus shakli.

Tarkib jihatidan menejment fanida shakllangan va ijtimoiy boshqaruv uchun ahamiyatli bo‘lgan toifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular boshqaruv sub’ektlari, boshqaruv sub’ektlarining faoliyati sifati va xulq-atvori, sub’ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeい, ishlab chiqarishning tashkiliy tuzilmasi bo‘linmasi, boshqaruv tizimining tuzilishi, sub’ektlarga boshqaruv ta’sirlari, iqtisodiy sharoit va natijalar va boshqalar. Mundarija bo‘yicha ijtimoiy boshqaruvning barcha toifalarini bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. *Boshqaruv va ijtimoiy menejmentning umumiy va farqli jihatlari nimada?*
  2. *Ijtimoiy menejment sohasidagi asosiy qarashlarni keltiring. 3. Menejment nazariyasi va amaliyotidagi asosiy bosqichlarni sanab bering*
- Adabiyotlar:**

1. Toshenko J.T. Sotsiologiya upravleniY. Uchebnik. – M.: Sentr sotsialnogo prognozirovaniya i marketinga, 2011. – 300 s.

2. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

3. Xolbekov A.J., Jumayev R.Z., Umarova N.T. va boshqalar. Boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlari / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2007. – 762 b.

4. Xolbekov A.J., Maxmudov I., Ravshanov F. Zamonaviy rahbar: ma’naviy fazilatlar, psixologik qiyofa va kasbiy mahorat. – T.: Akademiya, 2008. – 80 b.

5. Shtompka P. SotsiologiY. Analiz sovremennoogo obshchestva: Per. S polsk. S.M. Chervonnoy. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

## **2-MAVZU: IJTIMOIY MENEJMENTNING BAZAVIY TUSHUNCHALARI: BOSHQARUV SIKLI, SOTSIAL TEXNOLOGIYALAR, TASHKILOTLAR**

### **Reja:**

1. Ijtimoiy oldindan ko‘ra bilish (bashorat) va prognozlash
2. Ijtimoiy menejmentning muhim triadasi: ijtimoiy rejalashtirish, ijtimoiy loyihalashtirish, ijtimoiy dasturlash
3. Sotsial texnologiyalar – ijtimoiy menejmentning muhim instrumenti sifatida
4. Tashkilotlar – ijtimoiy boshqaruvning muhim omili

### **Tayanch iboralar:**

*Boshqaruv jarayoni, boshqaruv sikli, tashkilot strukturasi, sotsial texnologiyalar, ijtimoiy prognozlash, ijtimoiy rejalashtirish, ijtimoiy loyihalashtirish, ijtimoiy dasturlash*

Ijtimoiy menejmentning bazaviy tushunchalarini ko‘rib chiqamiz. Bunda avvalo ijtimoiy boshqaruv subyektlarini tavsiflovchi toifalarga to‘xtalish zarur.

1. Ijtimoiy boshqaruv subyektlari. Bular ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari iyerarxiyasida joy egallaydigan va ishlab chiqarishni boshqarishda ma’lum funktsiyalarni bajaradigan guruhlar (menejerlar, ijrochilar). Mavzu o‘zining maqsadlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va yo‘nalishini tashuvchisi bo‘lib, intellektual munosabat bilan unga qo‘yilgan muammolarni hal qiladi; samaradorlik haqidagi g‘oyalariga yaqinroq bo‘lgan strategiyani tanlash. Ijtimoiy menejment predmeti - bu ehtiyojlar, qiziqishlar, yo‘nalishlar to‘plamini ifodalaydigan, belgilangan maqsadlarni hal qiladigan, ishlab chiqarish jarayonidagi u yoki bu bo‘linma yoki bo‘g‘inni boshqarish ishonib topshirilgan va bu erda o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshiradigan shaxs.

2. Boshqaruv xodimlari. Ijtimoiy menejment uchun haqiqiy sub’ektivlik muhim ahamiyatga ega, bu belgilangan funktsiyalarga rioya qilishni emas, balki ishlab chiqarish jarayonida guruh salohiyatini amalgaloshirishning to‘liqligi va zaxiralardan foydalanish imkoniyatini anglatadi.

3. Boshqaruv guruhlarining iyerarxik tuzilishi - bir-biriga nisbatan buyurtma qilingan va ishlab chiqarishni boshqarish iyerarxiyasi tarkibida ma’lum darajani egallagan, ya’ni ularga boshqaruv maqomini beradigan (ya’ni yuqori, o‘rtta, quyi) boshqaruvning ijtimoiy mexanizmi sub’ektlarining to‘plami.

4. Subyektlarning boshqaruv ongi. Bunga ularning harakatlarini qo‘zg‘atadigan ehtiyojlar, qiziqishlar va yo‘nalishlar kiradi. Boshqaruv ongingin asosini boshqaruv guruhlari qadriyatlari tizimi, ularning "muhim" - "muhim emas", "muhim" - "ahamiyatiz" narsalar haqidagi g‘oyalari tashkil etadi.

Qiymatga yo'naltirishning mohiyatini bilib, boshqaruv guruhlari haqiqiy vaziyatda o'zini qanday tutishi va kelajakda o'zlarini qanday tutishi haqida taxminiy fikr yuritishingiz mumkin.

Motivatsiya - bu meyor-qiyomat ongingin namoyon bo'lishidir. Bunda muhim jihatlar quyidagilardir:

birinchidan, amaliy faoliyatda bir xil ishlab chiqarish sharoitida rahbarlarning turli guruhlari turlicha motivlarni keltirib chiqaradi; ikkinchidan, boshqaruv guruhlarining norma-qiyamat ongi umumiyligida fuqarolik funksiyasini bajaradi, ya'ni rahbarlarning rivojlanishining ijtimoiy darajasini, ularning hokimiyat va mulkning u yoki bu shakliga munosabatini tavsiflaydi;

uchinchidan, rahbarning muayyan boshqaruv uslubiga yo'naltirilganligi.

5. Subyektlarni boshqarish faoliyati - tizimning boshqaruv iyerarxiyasida ma'lum bir joyni egallagan shaxslardan amalga oshirilishi talab qilinadigan belgilangan qoidalarga muvofiq harakatlar va harakatlardir. Barcha sohalardagi boshqaruv faoliyati yuridik va ma'muriy hujjatlarga bo'ysunadi (lavozim yo'riqnomalari, bo'limlar to'g'risidagi nizom va boshqalar).

6. Boshqaruv xatti-harakati - ularni tushunish asosida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jamoasini boshqarish jarayonidagi harakatlardir. Bunda boshqaruvchining xatti-harakatlari yetakchilik uslubiga ham bog'liqdir.

7. Boshqaruv guruhlarining o'zaro aloqasi - umumiyligida maqsad va manfaatlar asosida o'zaro yo'naltirilgan boshqaruv jarayoni barcha ishtirokchilarining xulq-atvoridir.

Har bir boshqaruv guruhining o'zaro aloqalari mavjud, ammo ularning o'zaro ta'siri tizimi turli tizimlar tarkibidagi elementlar va kuchlarning tarkibida o'zaro farq qiladi. Ularning vakolatlari (huquqlari) mohiyati boshqaruv tizimida yetakchining darajasini belgilaydi.

Boshqaruvning o‘zaro ta’siri bevosita va bilvosita aloqalar turlariga bo‘linadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro aloqalar menejerlar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar orqali namoyon bo‘ladi; bilvosita aloqalar esa ayrim guruhlar ishi natijalarining boshqalar ish sharoitlari va natijalariga ta’sirida bilinadi.

8. Boshqaruv guruhlarining rasmiy pozitsiyasi - bu boshqaruv tizimidagi mehnat taqsimotining funktsional jarayoni asosida aniq vazifalar, huquq va majburiyatlar bilan belgilanadigan boshqaruv jarayonining elementidir. Ijtimoiy menejmentda rasmiy pozitsiya ko‘proq imkoniyatga ega bo‘lib, u subyekt egallagan boshqaruvning ijtimoiy mexanizmidagi o‘rnini aks ettiradi, bu quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- belgilangan va aslida bajarilgan vazifalarning mazmuni;
- ushbu subyektga berilgan huquqlar miqdori;
- ushbu rasmiy darajada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan rolga asoslangan xattiharakatlar hamda ushbu lavozimni egallaganlarning xattiharakatlaridir.

9. Boshqaruv kuchini sub’ektlar o‘rtasida taqsimlash boshqaruv guruhlarini iyerarxik qurilishi uchun asosdir. Ijtimoiy boshqaruv mexanizmining barcha sub’ektlari darajalari va kuch miqdori bo‘yicha farqlanadi.

10. Boshqaruv guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati quyidagilardan iborat:

- mamlakat aholisi uchun umumiy bo‘lgan manbalardan olinadigan imtiyozlar, asosiysi ish haqi;
- maqom xarakterining afzalliklari, ya’ni. egallab turgan lavozim maqomi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan imtiyozlar;
- xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar, transport, ofis bilan ta’minlash.

Umuman olganda, subyektning iqtisodiy mavqeい uning iqtisodiy tizimlarni boshqarish jarayonidagi rasmiy pozitsiyasiga bog‘liq.

11. Menejment madaniyati - bu iqtisodiy boshqaruv tizimi uchun qadriyatlar, ijtimoiy meyorlar, motivlar va xulq-atvor meyorlariga asoslangan barqaror an’anaviy qoidalar to‘plami.

Ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni boshqarish samaradorligi tashkilotning inson salohiyatidan to‘liq foydalanish, tashkiliy madaniyatni rivojlantirish, ishbilarmonlik ruhini qaror toptirish, yangilikka bog‘liqdir. Iqtisodiy tizimlar faoliyatining natijalarini tavsiflash uchun iqtisodiy va ijtimoiy jihatlardan foydalaniladi. Ijtimoiy sohani tavsiflash uchun hayot va mehnat sharoitlari va ishlab chiqarishning xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ijtimoiy boshqaruv uchun qo‘sishma ko‘rsatkichlardan foydalanish kerak:

- xodimning sifatini tavsiflovchi (novatorlar, ixlosmandlar, fidoyi, loafers va boshqalar) ko‘rsatkichlar;
- tashkiliy tartib, ya’ni barcha toifadagi ishchilarni boshqarish va ishlab chiqarish jarayonida harakatlarning izchilligi, buyurtmalarning aniqligi, mobil aloqa.

Ishlab chiqarishni boshqarishning ijtimoiy mexanizmi faoliyati bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy sharoitlarni tavsiflovchi kategoriyalar. Mulkka munosabat - iqtisodiy farqlarni va turli xil ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar xarakterini ifodalaydi. Mulkchilik subyekt soliqlarni to‘laganidan so‘ng, o‘z harakatlarining foydali natijasini to‘liq o‘zlashtirgan holda, resurslar bo‘yicha har qanday harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lishini anglatadi, shuningdek ularning oqibatlari uchun to‘liq moliyaviy javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Ijtimoiy boshqaruvdagagi mulk shakli o‘rtasidagi munosabatlar uning sub’ektlarining munosabatlari va iqtisodiy holatini shakllantiradi. Iqtisodiy boshqaruv mexanizmi - boshqaruvning aniq shakllarida davlat mulk munosabatlarini aks ettiradi. Boshqarishning iqtisodiy mexanizmi bu ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar to‘plamidir (bular iqtisodiy rag‘batlantirish, rag‘batlantirish, sanktsiyalar, soliqlar va boshqalar) va vositalar (boshqaruv usullari - iqtisodiy, tashkiliy, ma’muriy va ijtimoiy-psixologik)

Iqtisodiy mexanizmning iqtisodiy vositalari va vositalari ishlab chiqarishning turli sohalarida va uning turli darajalarida sub’ektlar tomonidan nimani, qanday qilib va qanday qilib amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligini belgilaydi.

### **Nazorat savollari:**

1. *Ijtimoiy prognozlashning ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?*
2. *Ijtimoiy menejment tarkibidagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga oid muhim triadani sanab bering*
3. *Sotsial texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?*
4. *Ijtimoiy boshqaruvda tashkilotning o‘rni qanday faoliyat bilan bog‘liq?*

### **Adabiyotlar:**

1. Toshenko J.T. Sotsiologiya upravleniY. Uchebnik. – M.: Sentr sotsialnogo prognozirovaniya i marketinga, 2011. – 300 s.
2. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
3. Xolbekov A.J., Jumayev R.Z., Umarova N.T. va boshqalar. Boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlari / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi. – T.: G‘ulom nomidagi NMU, 2007. – 762 b.
4. Xolbekov A.J., Maxmudov I., Ravshanov F. Zamonaviy rahbar: ma’naviy fazilatlar, psixologik qiyofa va kasbiy mahorat. – T.: Akademiya, 2008. – 80 b.
5. Shtompka P. SotsiologiY. Analiz sovremennoogo obshchestva: Per. S polsk. S.M. Chervonnaya. – M.: Logos, 2005. – 664 s.

### **Internet resurslari**

1. [www.lib.socio.msu.ru](http://www.lib.socio.msu.ru)
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>

### **3-MAVZU: IJTIMOIY MENEJMENTDA INSON OMILI**

Reja:

- 1.** Boshqaruvning inson omili
- 2.** Ijtimoiy menejmentda boshqaruv uslubi tushunchasi
- 3.** Boshqaruv jarayon sifatida: ishtirokmi yoki birgalikdagi ishtirok?
- 4.** Ijodiy jamoani boshqarish va ijodiy salohiyatni boshqarish **Tayanch iboralar:**

*Inson omili, shaxs strukturasi, shaxsning ijtimoiy faolligi, shaxsning sotsial xulq-atvori, shaxsning sotsial xatti-harakati, boshqaruv uslubi, ishtirok, ijodiy jamoa, ijodiy salohiyat, shaxs kreativligi, rahbar shaxsi, rahbar professiogrammasi*

Ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy tarkibi - boshqaruvning ijtimoiy mexanizmi sub'ektlarining o'zaro munosabatlarini, ularning ishlab chiqarish va boshqarish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. Yuqorida tavsiflangan ayrim toifalar menejment fani tomonidan ishlab chiqilgan va ijtimoiy boshqaruv nazariyasining kontseptual apparati asosini tashkil etadi, ijtimoiy menejment ushbu toifalarni menejment fanidan qarz oladi va menejmentning o'ziga xos ijtimoiy muammolari echimini hisobga olgan holda ularni tuzatadi.

Menejmentning ijtimoiy muammolari va ularning turlariga to'xtalaylik. Avvalo, ijtimoiy muammolarni taxminan bir necha guruhlarga bo'lish mumkin:

- mehnatning ijtimoiy muammolari;
- noishlab chiqarish sohasi muammolari.

Menejment sohasida bu ishlab chiqarishni turli darajalarida boshqarish bilan shug'ullanadigan boshqaruv guruhlari mavjud: a) professional menejerlar (vazirdan tortib ustagacha); b) kasbi menejment funksiyalarini bajarishni talab qiladigan mutaxassislar (huquqshunoslar, iqtisodchilar, texnologlar).

Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy muammolarga boshqaruv kadrlari tarkibi, ularning boshqaruv iyerarxiyasidagi

mavqei, ularni tanlash, joylashtirish va yangilashdagi nuqsonlar, ular orasidagi boshqaruv kuchini taqsimlash va boshqaruv ishlarining sifati bilan bog‘liq muammolar kiradi. Ishlab chiqarishni boshqarishning shu va boshqa ko‘plab ijtimoiy muammolarining hal qilinmaganligi ijtimoiy boshqaruvni o‘rganishni talab etadi. Mamlakatdagi hozirgi vaziyat nafaqat 30-yillardan, balki 80-yillardan ham keskin farq qiladi. Ishlab chiqarishni boshqarish uchun birinchi navbatdagi masala – bu ijtimoiy buyurtmaga ehtiyoj, iqtisodiy boshqaruvning ijtimoiy muammolarini o‘rganishdir. Bunday sharoitda ijtimoiy menejment quyidagi funksiyalarni bajarishi kerak:

- tushuntirish - salbiy hodisalarning sabablarini anglatish;
- axborot - o‘zgarishlarning borishi, qayerda sodir bo‘layotgani, ijtimoiy tuzilmaning qaysi jihatlari ta’sir qilishi, bularning barchasiga turli xil ijtimoiy guruhlarning munosabati qanday, ularning xatti-harakatlari strategiyasi to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish;
- bashoratli va muhandislik - dolzarb muammolarni hal qilish uchun loyihalarni ishlab chiqish.

